

2019 yilning yanvar-fevral oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Jizzax viloyatida jami **194,4 mlrd. so‘m** qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **108,4 %**ni tashkil etdi.



Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **4,1 mlrd.so‘m** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,1 %**ni hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **4,5 martaga** ko‘p oshdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **65,7 %** yoki **127,7 mlrd.so‘m** to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **126,6 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **32,2 %** yoki **62,6 mlrd.so‘m** to‘g‘ri keldi hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **78,1 %**ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-fevral oylaridagi qurilish ishlari tarkibi

Yirik pudrat tashkilotlari

-hajm	4,1 mlrd.so‘m
-o‘shish sur‘ati	4,5 marta ko‘p

Kichik korxonalar va mikrofirmalar


-hajm	127,7 mlrd.so‘m
-o‘shish sur‘ati	126,6 %

Norasmiy sektor

-hajm	62,6 mlrd.so‘m
-o‘shish sur‘ati	78,3 %

2019 yil yanvar-fevral oylarida viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining qariyb 65,7 foizi kichik biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan %da)




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi **2,1 %**ni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining **65,7 %**ni tashkil etdi yoki **127,7 mlrd.so‘m** to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **126,6 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **62,6 mlrd. so‘m**ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmning **32,2 %**iga teng bo‘ldi. Shu bilan birga o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **78,1 %**ni tashkil etdi.




**2019 yilning yanvar-fevral oylarida
shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari
(jamiga nisbatan %da)**



Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumanida (76,6 %), Jizzax shahrida (79,4 %), Paxtakor tumanida (71,0 %), Zarbdor tumanida (59,6 %), G'allaorol tumanida (55,4 %) to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Zafarobod (9,7 %) va Forish tumanlarida (32,2 %) kuzatildi. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keldi – hududdagi jami qurilish ishlarining 90,3 %, Forish tumanida 67,8 %ini tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Mirzacho'l, Paxtakor tumanlari hamda Jizzax shahrida kuzatildi.

Mirzacho'l tumanida asosan qurilayotgan namunaviy loyihalardagi turar joylarining qurilish ishlari jadal borishi tufayli o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **130,1 %** bo'lishi ta'minlandi.

Paxtakor tumanida yuqori o'sish sur'ati, yani **119,3 %**i kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha obyektlari va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda noturar binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmidan **76,8 %**ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **5,5 %** punktga kamaydi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda **15,7 %**ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,4 %** punktga ko'paydi, maxsus qurilish ishlari hissasiga esa **7,5 %**ga to'g'ri keldi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(mlrd.so'm)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Jizzax viloyati	194,4	4,1	127,7	62,6
Jizzax shahar	78,4	3,4	62,2	12,8
tumanlar:				
Arnasoy	3,0	-	1,1	1,9
Baxmal	9,7	-	4,4	5,3
G'allaorol	14,8	-	8,2	6,6
Sharof Rashidov	26,1	-	20,0	6,1
Do'stlik	5,8	-	2,3	3,5
Zomin	10,2	-	4,9	5,3
Zarbdor	8,9	-	5,3	3,6
Zafarobod	3,1	-	0,3	2,8
Mirzacho'l	5,2	0,7	3,0	1,5
Paxtakor	15,5	-	11,0	4,5
Forish	8,7	-	2,8	5,9
Yangiobod	5,0	-	2,2	2,8

**2019 yil yanvar-fevral oylarida
shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari**

(mlrd.so‘m)




Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida **78,4 mlrd. so‘m**ni tashkil etdi. Buning sababi Shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko‘p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, ijtimoiy soha va ko‘ngil ochish maskanlarini barpo etilayotganini takidlash mumkin.

Shu bilan bir qatorda qurilish ishlari yuqori sur‘atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bajarilgan qurilish ishlari **26,1 mlrd. so‘m**ni tashkil etdi.




Bajarilgan qurilish ishlarining asosini namunaviy loyhalar asosida qurilayotgan uylar qurilishi tashkil qilmoqda.

2019 yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2019 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi ishlarining qurilish loyhalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallangan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **76,8 %**ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatgichga nisbatan **5,5 %** punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **15,7 %**ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **3,4 %** punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari xissasida esa **5,4 %** to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan **2,1 %** punktga ko'paydi.


2019 yil yanvar-fevral oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so'm)

	yanvar-fevral	
	2018 y.	2019 y.
Qurilish ishlari hajmi	160,0	194,4
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	4,0	11,8
nodavlat	150,0	182,6

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **182,6 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **93,9 %**ni tashkil qildi.



2019 yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Jizzax shaxriga **40,3 %**ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sharof Rashidov tumaniga **13,4 %**i, Paxtakor tumaniga **8,0 %**i va G'allaorol tumaniga **7,6 %**iga to'g'ri keldi.

Jizzax viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **D.Mullajonov**
Aloqa telefoni: **(0371) 230-83-55**